

# TONG Yulduzi

№16 (66401)  
2003 yil  
21 aprel  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi  
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.

## BIRINCHI MUCHAL

Vatanim - onam!

Vatan - muqaddas makon! Onam allasini tinglab ulg'aygan mo'jazzina beshiging! Ilk bora atak-chechak qilib yo'rg'alagan aziz va qadrdon ostonam! Ona mehri qiyos u!

Men ham Vatan tuyg'usini mehribon onajonim islarida, sochlarimni jamalak qilib o'rgan qadoq qo'llarida, boshiga doimo oppoq xarir ro'mol tashlab,

lablari shukronalar aytuvchi siymosida his qilaman. Quvnoq bolaligim o'tgan mo'jazzina mahallam, hovlimiz chetida qurilgan o'sha tandir va unda onaizorim yopgan sedanali issiq nonlarda sezaman Vatan ta'mini!

Yoshligimda buvilarim bizning uyimizga mehmon bo'lib kelsalar, bir kecha ham yotib qolmasdan darrov uylarini sog'inib qolardilar. Nega shunday?... Ulg'aydim. Endi bilsam, o'sha buvijonim «tark etgisi kelmagan go'shalari o'z kichik vatani ekan». Vatan tuyg'usidan, uning sog'inchidan so'z

ochgan mahal beixtiyor ko'z o'ngimda, o'z diyori Andijonni so'nggi nafasigacha qayta ko'rish orzusida yashagan Bobur Mirzo gavdalanadi. Yurtidan keltirilgan qovunning birtilimidan yuragiga Vatan quvvati kirgan Boburshohning!

Tole yo'qi jonimga balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yib, hind sari yuzlandim,  
Yo, rab, netayin ne yuz qarolig' bo'ldi.

Hijron o'ti bag'rini kuydirib, kul qilgan o'zbek o'g'loni boshida toj, qo'lida qalam bilan muqaddas tuprog'ini kuyiladi.

O'zbekiston deya ataluvchi go'zal diyorda uning siymosi qalblar to'rida abadiy yashamoqda. Bu yil birinchi muchalini qarshilayotgan yurt - O'zbekiston bu mening ONA VATANIMDIR.

1991 - yil 31 - avgust kuni qo'y muchalida dunyoga kelgan bolajon bu yil 12 - yoshda. Uning ko'zlarida yoshlik shijoati, mehr otashi, yurt sevgisi namoyon, qalbi quvonchlarga to'la holda kelajak sari shahdam-shahdam qadam tashlamoqda.

Ha, xuddi shunday, ona diyorimiz ham buyuklik sari shahdam odimlayveradi.

Sadoqat DADAYEVA,  
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi  
5-ixtisoslashtirilgan maktabning  
8- «A» sinf o'quvchisi.

## O'QUVCHILAR QUVONCHI

Marafon

Bizning Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 97-maktabda yaqinda o'quvchilar o'rtasida «Bilimlar marafoni» bo'lib o'tdi. Ushbu marafonda 5- «A», 5- «B», 5- «V» sinf o'quvchilari o'zaro bellashdilar. Har bir sinf marafonga qizg'in tayyorgarlik ko'rdi. Barcha fanlardan risola, test, yig'ma kitoblar tayyorlandi. O'quvchilar o'zlari tayyorlagan ishlarini ko'rgazmalar zaliga qo'yishdi. So'ngra bellashuvchi sinflarga qog'ozdan tayyorlangan raqamlar tarqatildi. Davraga raqamlar bo'yicha rahbar o'qituvchilar chiqib, ularga yozilgan savollar bilan o'quvchilar bilimlarini sinashdi.

O'quvchilar ustozlari va yig'ilganlar oldida zukkoliklarini, bilimlarini, intilishlarini namoyish qildilar.

G'oyat qiziqarli o'tgan bu sinovda 5- «A», 5- «D» sinf g'oliblikni qo'lga kiritdi. 5- «B», 5- «V» sinf o'quvchilari esa yanada ko'proq bilim olishlari kerak ekanligi ma'lum bo'ldi. Maktabimiz direktori Mukarram opa g'olib o'quvchilarni qizg'in tabrikkladi.

Ana shunday marafonlar maktablarda tez-tez o'tkazib turilsa, biz o'quvchilar bilimlarimizni mustahkamlashimizda katta yordam beradi.



Munisa UBAYDULLAYEVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 97 - maktabning 5-sinf o'quvchisi.

## KITOB - OFTOB

Sir emaski, hozirgi kunda ko'pchilik tengdoshlarimiz kitob o'qishdan ko'ra kino va diskotekalarga borishni yoqtirishadi. Ularda kitobga mehr uyg'otish maqsadida maktabimizda kitoblar marafoni uyushtirildi. Har bir o'quvchi



maktabimiz kutubxonasi uchun kitoblar sovg'a qilishdi. Hatto sinfimizdagi ayrim kitob bilan «chiqisha olmaydigan» bolalar ham kitoblar ko'tarib kelishdi. Marafonda bilim manbai bo'lmish kitob haqidagi she'r va qo'shiqlar yangradi, hayotiy sahna ko'rinishlari-yu jazzi qizchalarning raqsalarini yig'ilganlar maroq bilan tomosha qilishdi. Chiqishlarimiz mehmonlarga ham ma'qul keldi chog'i, bizni shahar bosqichiga ham taklif qilishdi. Maqsad faqat yutish emas, aksincha bilimlarimizni yanada boyitish edi. Endi yangi kitoblar bilan yanada boyigan kutubxonamizdan o'zimiz xohlagan kitoblarni olib, mazza qilib o'qiyamiz.

Dilshod IMOMOV,

Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
316 - maktabning 6 - «V» sinf o'quvchisi.


## ASALARILARNING BOG'BONI

Bahor kelib, uyasida hurrak otib uxlayotgan Ayiq uyg'onibdi. Ayiqning juda qorni ochib ketgan ekan, ammo qarasa o'rmonda mevalar endigina gullayotgan, yeyishga hech vaqo yo'q emish. Ayiq ovqat izlab, o'rmonda rosa izg'ibdi. Bir payt qarshisidan bir daraxt chiqib qolibdi, daraxtning kavagidan asalarilarning g'o'ng'illagan ovozi kelayotgan ekan. «Qaniydi, hozir ozginagina asal yeb olganimda edi, - deb o'ylabdi Ayiq o'zicha. - Ammo asalarilarning jizillatib chaqishi chatoq-da!»

Ayiq daraxtning kavagidan sirako'zini uza olmabdi. Uning judayam asal yegisi kelayotgan ekan-da!

-Asalarijonlar, iltimos, ozgina asal beringlar, - deb iltimos qilibdi Ayiq. - Juda qornim och, o'rmonda bo'lsa hali mevalar pishgani yo'q...

-Mayli, mayli, - deb g'o'ng'illashibdi asalarilar. - Iltimos qilganing uchun ham senga asal beramiz. Axir



## Bahor ertagi

bahor kechikib, gullar ochilmagan paytlarda biz ham och qolamiz-ku!

Ayiq asaldan yeb qornini to'yg'azibdi va asalarilarga rahmat aytib ketibdi. Ertasi kuni esa Ayiq yana asalarilarning yoniga kelibdi va... daraxt atrofiga bo'tako'zlar, chuchmomalar, moychechaklar va boshqa gullarni eka boshlabdi. Endi asalarilar uzoq-uzoqlarga uchib bormay, uylarining yonginasidagi gulzordan asal yig'ishlari mumkin ekan.

Shunday qilib, asalarilar bilan Ayiq do'stlashib qolishibdi. Endi asalarilar Ayiqni mehmonga chaqirib, uni asal bilan siylashar ekan.

Ayiq esa, mitti do'stlarim asal yig'ishga qiynalishmasin, deb o'tloqdagi gullarni parvarish qilar ekan.

Xurshid TOJIBOYEV,  
Sirg'ali tumanidagi 266 - maktabning  
1-sinf o'quvchisi.







## Taklif

## CHETNIKI KERAKMAS

Hozir bozorlarimizda xorijdan keltirilayotgan tovuq oyoqlari ko'paygan. Uning qaynatmasini, ayniqsa, qovurilganini bizlar sevib tanovul qilamiz. Yaqinda rus tilida chop etiladigan bir gazetada o'qishimcha, unday tovuqlar arzon ozuqa - hayvonlarning ichak-chavog'idan tayyorlangan konservalar bilan boqilarkan. Kamiga sifati buzilmasligi uchun dorilangan suyuqlikka botirib olinib, keyin muzlatilarkan. Olimlar import parranda go'shtining sifati tekshirishsa kerak, deb o'ylayman. Lekin baribir chetdan emas, balki o'zimizda ham jo'jalarni ko'paytirib, xalqimizni sifati tuxum va tovuq go'shti bilan ta'minlash kerak.

Jonibek ERKAYEV,

Xorazm viloyati, Yangibozor tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 6- «B» sinf o'quvchisi.

## YOSH SHIFOKORMAN

AQShning Boston shahridagi Garvard universiteti olimlarining ilmiy izlanishlari natijasiga ko'ra, choy ichgan insonlar yurak infarkt miokard xastaligiga, umuman choy ichmaydiganlarga nisbatan 5 foiz kam duchor bo'larkan. Chunki choy tarkibida xolesterinni kamaytiruvchi va qonni yurgizuvchi flavonoid moddasi bor ekan. Yana, qahva iste'moli ham infarkt miokardni keltirib chiqarmas ekan.

Nasiba ISOQOVA,

Andijon viloyati, Bo'z tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

## ENG YAXSHI SOVG'A

Inson yuksak madaniyatli va ma'rifatli bo'lishi uchun ko'p o'qishi kerak. Har bir o'quvchining uyida o'z kutubxonasi bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. O'qigan kitoblarni e'zozlab, vaqt o'tgach yana varaqlab o'ziga ozuqa olardi. Hayotdagi ba'zi vaziyatlardan to'g'ri yo'l bilan chiqib, muammolarni yengillik bilan hal qila olardi. Hozirgi kunda bolalar shoirlari va yozuvchilarimiz ko'plab asarlar yozmoqdalar. Menimcha, har bir o'quvchining shaxsiy kutubxonasida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Pirimqul Qodirov, Chingiz Aytmatov, O'tkir Hoshimov, Erkin Vohidov va boshqa atoqli shoir va yozuvchilarimizning asarlari bo'lishi shart. Shuningdek, jahon adabiyotining sara asarlari ham kutubxonamizdan joy olsa, qanday yaxshi bo'lardi? Siz bunga nima deysiz, aziz tengdosh? Buning chorasini topish uchun kattalarni ham yo'lga soling, o'zingiz ham eng yaxshi sovg'a - kitob ekanini unutmang.

Farruh TO'YCHIYEV,  
Farg'ona viloyati,  
O'zbekiston tumani.

Kutubxona



## XIRMON TO'LA DON BO'LSIN

Fasllar kelinchagi navbahorda qir-adirlar qizil gilam to'shalganday ko'rinadi. Ariq bo'ylarida maysalar sabza uradi. Qor tagidan bosh ko'tarayotgan boychechaklar ham bahordan darak beradi. Ko'klamoyga qarab turib, ko'ngildagi g'uborlar zilol suvlar bilan yuvilib, yangilanish, yasharish kerakligini eslatadi.

Bobodehqonim yergaurug' tashlaydi. Kuz to'kin-sochinligi uchun hozirdan mehnat qiladi. Uning uchun «Hamal keldi, - amal keldi». Darhaqiqat, bahor yumushlarga to'la fasl. Hozirgi mehnat mahsuli uzoqmas, yaqinda namoyon bo'ladi. Bolajonlar ham o'zota-onalariga ko'maklashsalar, tomorqada ekin-tikin qilsalar, atroflarni supurib tozalasalar, yurtim

jamoli chiroyga, xirmoni donga to'la bo'ladi.

Nilufar SUVONOVA,

Navoiy shahridagi 15-o'rta maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi.

## MURABBIYNING DUOSI

Sport - yurtning qudratidir,

Ezgulikning suvrati.

Sport bilan shug'ullanmoq,

Yosh qalblarning jur'ati.

Bizning yosh sportchilarimiz o'tgan yili Farg'ona viloyatida bo'lib o'tgan «Umid nihollari» musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgach, g'alabadan ruhlanib ketishdi va bo'lajak musobaqalarda ham g'oliblik shohsupasiga ko'tarilish ishtiyoqida qizg'in hozirlikni boshlab yuborishgan. O'tgan yili ikki tur bo'yicha kumush medalni qo'lga kiritgan Jobir Mirzayev bu yil oltin medalni ko'zlayapti. Bunga umid qilsa bo'ladi. Chunki ularning Abdurahmon aka Ismoilov hamda Akbar aka Zokirovdek mehribon va talabchan murabbiylari bor. To'garak rahbari Abdurahmon akaning yoshlari anchaga borib qolgan bo'lsada, hamon sport maydonini tark etganlari yo'q, bolalarga sportning sir-sinoatlarini o'rgatib charchamaydilar. U kishining yana bir ajoyib odatlari bor: Mashg'ulotlar tugagach, shogirdlarini uzundan-uzoq duo qiladilar, ularga g'alaba tilaydilar. Bunga ko'nikib qolgan bolalar ham ustozlaridan duo olmay ketmaydilar.

Bu yilgi bellashuvlarda murabbiyning tinimsiz mehnatlari besamar ketmasligiga, duolari ijobat bo'lishiga biz ham tilakdoshmiz.

Madina PARDAYEVA,

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahridagi Navoiy nomli maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

## MEN ANGLAGAN HAQIQAT

Sinfodoshlarim menga katta ishonch bildirib, «Kamolot» tashkilotining sardori qilib saylashgan. Men ham ularning ishonchini oqlashga, o'qishda va jamoat ishlarida barchaga namuna bo'lishga intilaman. Oyim Nodira Muhammedova musavvirlar. Ular maktabimiz uchun ko'plab panolar, manzarali rasmlar chizib berdilar. Men esa bu ishlarda ularning yaqin yordamchilari bo'ldim. Bog'imizni obod qilishga ham o'z hissamni qo'shdim...

Kamolotchilar har sohada - o'qishda ham, ishda ham, dunyoqarashining kengligi bilan ham tengdoshlariga namuna bo'lishi kerak, deb o'ylayman. Shuning uchun dunyo voqealaridan xabardor bo'lishga, ularni tahlil qilishga intilaman. Ko'pincha, yosh bolalar oynai jahon qarshisida ko'p o'tirmasligi kerak, deya ta'kidlaydigan oyijonim, shu kunlarda ko'plab namoyish etilayotgan Iroq voqealarini kuzatib borishimga qarshilik qilmayaptilar. Ularning fikricha, o'z mustaqilligiga nashmaqatlar bilan erishayotgan Iroq xalqini, farzandlarini ko'rib, yurtimizdagi tinchlikning, farovonlikning, biz bolajonlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlarning qadriga yetadigan bo'lar ekanman. Menimcha, onam haqlar. Shuning uchun ham ko'rganlarimni sinfdoshlarim bilan o'rtoqlashaman. O'zim anglab yetgan haqiqatni ularga ham tushuntirishga harakat qilaman.

Ruslan MIRZAYEV.

## ONAJONLAR, OMON BO'LING

Onajonlarimiz uchun oila tinchligi, farzandlar salomatligidan ortiq baxt bo'lmas kerak. Ular ko'nglini qimmatbaho sovg'alar bilan emas, balki shirin so'zimiz, a'lo baholarimiz, namunali xulqimiz bilan olishimiz mumkin.

Men ham onajonimni hamisha yaxshi kayfiyatda yurishlarini xohlayman va shunga harakat qilaman. Onajonim - Zarifa Umarova Janubiy temir yo'lda chipta sotuvchi bo'lib ishlaydilar. Shunday vaqtlar bo'ladi, bayram va yakshanba kunlari ham ishlashlariga to'g'ri keladi. Ular o'z kasblarini juda yaxshi ko'radilar va doimo mas'uliyat bilan qaraydilar. Chipta oluvchilarning son-sanog'i yo'q. Onajonim ularning har biri bilan xushmuomalali bo'ladilar. Buni men ularning ishxonalarga borganimda kuzatganman.

Onajonim uy-ro'zg'or ishlarida ham bizga boshlar. Qizlar pazanda, saranjom-sarishta bo'lishi kerak, deyidilar. Ular bo'sh vaqtlarida badiiy kitoblarni o'qishni juda yaxshi ko'radilar. Bizni ham shunga da'vat etadilar.

Ha, onajonlar ana shunday tinib-tinchimaydigan insonlardir. Hatto Payg'ambarimiz ham qiladigan yaxshiligimizni uch marta onamizga, so'ng otamizga qilishimiz kerakligini ta'kidlaydilar. Shunday ekan, onajonlarimiz doimo omon bo'lsinlar. Biz farzandlari haqida faqat yaxshi gaplar eshitishsin.

Zulxumor UMAROVA,

Hamza tumanidagi 216- maxsus ta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi.







## Qo'shiqli hayot bo'lsin

Osoyishtalikning onasi bo'lmish Tinchlik bor joydakuy, qo'shiq bor. Yaxshi qo'shiq dillarni yayratib, ko'ngilni kuylatadi. Kuylovchi qalb hamisha yaxshilarga, yaxshiliklarga yondoshadi. Qo'shiqning yanada dillarga yaqinlashishida uning kuyi katta ahamiyatga ega.

Bu She'rga Jumadulla Nazarov kuy bastaladi. borada mehnatkash O'quvchilarning tinimsiz mehnatlari zoye ketmadi. Ularning «Ulug' Vatan» qo'shig'i viloyat bosqichida birinchi o'rinni egalladi.

Bir necha yillardan beri «O'zbekiston - Vatanim manim» bolalar qo'shiq bayramida bastakor Jumadulla Nazarov ham baholi qudrat o'z qo'shiqlari bilan ishtirok etib kelyapti. Uning qo'shiqlari tuman, viloyat va Respublika ko'rik-tanlovlarida o'z o'rniga ega.

Yaqinda Abror Hidoyatov nomli teatr binosida Toshkent

viloyati Xalq Ta'limi bo'limi boshchiligidagi «Qo'shiqlar bayrami» bo'lib o'tdi. Unda bolalar guruhlari, sozandalar, raqs guruhlari va yakkaxon qo'shiqchilar ishtirok etishdi. Yakuniy viloyat bosqichida qatnashgan san'atsevar o'quvchilar tuman g'oliblari edi.

Shulardan biri Oqqo'rg'on tumanining Olimkent qo'rg'onidagi Abu Ali ibn Sino

nomli 3-maktabning «Kamalak» xor, ashula va raqs dastasidir.

«Kamalak» dastasining o'quvchilari shoira Umida Abduazimovaning «Ulug' Vatan» deb nomlangan she'rini tanladilar.

Jumadulla Nazarov.

«Kamalak» dastasining tashkil etilganiga besh yil bo'ldi. Mana shu yillar mobaynida o'quvchilar ko'plab tuman, viloyat va Respublika ko'rik-tanlovlarida ishtirok

etib, atrofdagilar e'tiborini

tortayapti.

Ularning bunday yutuqlarga erishishida albatta guruhning

badiiy rahbari,

musiqao'qituvchisi,

«Shuhrat» medali

s o h i b i

Yormuhammad aka

Elmurodov, musiq

rahbari Botir

Mirzayev, raqslarni

chiroyli qilib

sahnalashtirayotgan

Ra'no Nurmatova

kabilarning ham

xizmati katta.

Ayniqsa, maktab

rahbari Saodat opa

M a s a i d o v a

o'quvchilar uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladi.

Bundan tashqari, maktabning o'z homiysi bor. «Akmal» yog' - moy ishlab chiqarish xususiy korxonasi o'quvchilarni otaliqqa olgan.

Dasta a'zolari- 5- sinf o'quvchilaridan Surayyo Mamatova, Diyora Polvonova, Aziz Tursunboyev, Jasur Boboyorov, 10- sinf o'quvchisi Zohid Xudoyberdiyev kabi o'quvchilar ham o'z navbatida ustozlari ishonchini oqlashga harakat qilyaptilar.

Ha, hamisha qo'shiqli hayot bo'lsin. Qo'shiq faqat xotirjam qalblargagina yarashadi. Barcha shart- sharoitlari muhayyo bo'lgan yurtda nega qo'shiqlar kuylanmasin... Ular kuylaydi, kuylaganda ham dildan kuylaydi va shuning uchun ham bastakoru shoir, xonandalar qalb nidolari ezgu qalblarga albatta yetib boradi.

*Sajdagohim shu Vatan,*

*Gul panohim shu Vatan.*

*Vatan sening sha'ningga,*

*Jonni nisor etaman.*

*Feruza SOYIBJON qizi.*

HAMMAUNGA

HAVAS QILADI

*Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi*

*Madaniyat uyida «Qo'shiqlar bayrami»*

*ko'rik- tanlovi borardi. Navbat tuman*

*Xalq Ta'limi bo'limiga qarashli 8-*

*maktabning 6- «A» sinf o'quvchisi*

*Dilafro'z Shermatovaga berildi.*

*Shu kuni yosh qo'shiqchi Dilafro'zga*

*omad kulib boqdi. U g'olib bo'ldi.*

Dilafro'z maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga qo'shiqchilik san'atiga ham qiziqadi. Shuning uchun ham bo'sh vaqtlarini tuman bolalar va o'smirlar ijodiy markazidagi «Charos» bolalar guruhida o'tkazadi. Ustozi Pokiza Minavvarovadan qo'shiqchilik san'atining sir- asrorlarini puxta o'rganishga harakat qiladi. U bolalar qo'shiqlarini, hatto maqom janrida ham qo'shiqlar kuylayapti.

Dilafro'z ilk bor sahnada Yulduz Usmonovaning «Bolaligim, seni sog'indim» qo'shig'ini kuylaganida atrofdagilar olqishiga sazovor bo'lgandi. Shundan so'ng shoira Nilufar she'riga bastalangan «Bodi sabolari», «Ozor etmasa» kabi qo'shiqlari Dilafro'z tomonidan yangradi.

- Qo'shiq insonlarni yolg'onchilik, chaqimchilik kabi yomon illatlardan qaytaradi. Kayfiyatni ko'taradi, yaxshi o'qishga, namunali o'quvchi bo'lishga undaydi,- deydi Dilafro'z.

Tengdoshingiz Dilafro'zning kelajakda orzulari katta. Maktabni a'lo baholar bilan yakunlab, qo'shiqchilik



san'atining rivojlanishiga hissa qo'shmoqchi. Shuning uchun ham hozirdanoq bilimlarini boyitib, mahoratini oshirib borayapti. Uning shirali ovozi parkentlik yoshlar havas bilan tinglayotgan ekanlar, uning tinglovchilari dala-tog'lar osha, ellararo ko'paysin, deymiz.

*Abduzohur QORABOYEV,*

*jurnalist.*



# «SENGA KO'Z TIKKAN KO'P, YONAR DILIM-A»

*Zilolaxon Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 273-litsey maktabda yosh avlodga saboq*

*berish bilan birgalikda she'rlar ham mashq qilib turadi. Uning she'rlarida do'stlik, mehr, Vatanga muhabbat tuyg'ulari ulug'langan. Qalb haroratini shogirdlariga ulashib, tuyg'ularini oq qog'ozga muhrlayotgan bu yosh ustozga ijodiy zafarlar tilaymiz.*



ATIRGUL

Atirgul uyg'onsa ayni tong chog'i, Gullarning bazmi-la yuz ochgan bog'i. Nimpushti, qip-qizil, oppoq yuzlari, Turfa gul pariday go'zal o'zlari. Barcha guldin go'zal atirgulim-a, Senga ko'z tikkan ko'p, yonar dilim-a. Yovuz bo'ronlarga dosh bera olgan, Go'yo gullar ichra shoh bo'lib qolgan. Uzmoqqa qo'l cho'zgan qo'li uzunlar, Qani endi sendan so'rsa iznlar. Izn berasanmi, atirguljon ayt, Bulbuling sen uchun kuylab tursa bayt.

DO'STLIK

Do'stim menga mudom ko'rsatar mehr, So'zlasa so'zida ma'no va sehr. Qalbini ochadi qolmayin dardi, Goh shoddir, goh dilda g'uborlar gardi. Mudom avaylayman do'stliging bilib, Sir aytar kunduzni hatto tun qilib. Tugamas gapimiz, orzular, o'ylar, Yoshlik beboshliklar maktabdan so'ylar. Do'stlashmoq, do'st so'zi naqadar buyuk, Bokira tuyg'ular beg'ubor suyak. Men senga omad, baxt tilagan edim, Jilmayib, sen singlim bo'lgansa dedim.

*Zilola AXROLJON qizi.*





Assalomu alaykum, biri-biridan ziyrak, topqir va tirishqoq o'g'il-qizlar! Sizlarga adabiyot olamiga qay tarzda kirib kelganligimni hikoya qilib bermoqchiman.

Bolaligim 1941-1945 yillarda yuz bergan urushga to'g'ri kelgan. Otadan yolg'iz o'g'ilman. Dadam 4 yoshimda vafot etgan. Onamning tarbiyasida ulg'ayib, maktab-internatlarda tarbiya olganman. Bolaligi menga o'xshab

urush yillariga to'g'ri kelgan tengdoshlarimning shiori - «Tirishqoqning tirmog'i toshga chega (qoziq) qoqadi», degan xalq maqoliga amal qilish asosiga qurilgan. Front

ortida qolgan qari-qartanglarning ahvoli o'ta og'ir bo'lgani

uchun biz bolakaylar ishini ham, o'qishni ham bir-biriga bog'lab olib borganmiz. Birinchi sinfga o'qishga qabul qilishganida lotin alifbosi iste'moldan chiqib, o'qishlarimiz kirill alifbosiga ko'chirilgan edi. Asosiy kitoblar lotin alifbosida ko'proq bo'lganligi sababli, har ikkisini o'rganishimizga to'g'ri kelgan.

Mentug'ilgan ovulayni vaqtda qardosh Qirg'izistonning Jalolobod viloyatiga qarashli bo'lib, uni Sofed Bulondeyishadi. Tog'lar orasida joylashgan bu tabarruk qishloqning o'ziga xos tarixi haqida mavridi kelganda so'zlab berarman. Bizning ovulimizda azaldan kitobo'qishga qiziqish va mehr kuchli bo'lganligi uchun turli soha bo'yicha olimlar, bilimdon kishilar juda ko'p chiqqan. Maktabda tojik, qirg'iz va chechen bolalari bilan yonmayon o'qib, anchagina qardosh tillarni o'rganishimizga to'g'ri kelgan. Masalan, sodiq sinfdosh do'stlarim Asqar Rismambetov, tojik farzandi Ismonjon Hamzaliyev va chechen dilbandi Rizvon Dilxayevlar bilan hozir ham bordi-keldi qilib turaman. Taniqli shoir va tarjimon Miraziz A'zam bilan suhbatlaridan birida ta'kidlab o'tganday, urush davrida Kavkazdagi boshqa millatlar qatorida qrim-tatarlar bilan birga chechen va ingushlar ham Markaziy Osiyoga majburiy ravishda ko'chirilgan edi. Oqibatda, ular 1980 yillarga qadar biz bilan yelkama-yelka yashab, mehnat qilishgan.

Qadrli yosh do'stlarim! Men yuqorida aytib o'tganimday, urushdan keyingi qiyinchiliklar bizni toblagan. Kitobga bo'lgan

## ADABIYOT DUNYOSIGA SAYOHAT

ixlos, o'zbek tili va adabiyotidan saboq bergan Dadaxon Qozoqov, Haydarali Bozoraliyev kabi fidoiy, o'z kasbining ustalari sabab bo'lib, adabiyot olamiga kirib kelganman. Qishlog'imizda ilgari ham hozirgi paytda ham xalq dostonlarini, ma'rifiy kitoblarni qiroat bilan o'qish urf bo'lgan. O'rtancha xolamning turmush o'rtog'i Sharifxon pochchamiz uloqchi bo'lgani uchun doim ot minib yurgani sababli do'stlari «To'ra» deb erkalatib chaqirishar edi. U kishi ko'pkari chopishdan tashqari ot ishqibozlariga egar va jabduq yasardi. Oqshomlari mehmonxonaga uloqchi do'stlari to'planib, gap-gashtak avjga chiqqan paytda mendan «Ravshanxon» dostonini o'qib berishimni iltimos

qilishardi. Ovulimizdagi choyxona va klublarda esa ko'sak chuvgani to'plangan qishlog'imiz ahliga Davronboy aka Shobdonov bilan birga navbatma-navbat «Go'ro'g'li», «Alpomish» hamda «Kuntug'mish» kabi xalq dostonlarini navbati bilan o'qib berib, zavq-shavqqa to'lib borardik. Bu orada qirg'iz tilini o'zimga yarasha zo'r o'rganib olganim uchun «Manas» eposini, «Qurmonbek» dostonini mutolaa qilishni boshladim. Hozirgi bolalardek ustu boshimiz butun, qornimiz to'q bo'lmasa ham bilimga o'ta chanqoq, mehnat borasida juda tirishqoq edik.

Birinchi she'rim 1955 yilda, may oylarida («Lenin

uchquni») hozirgi sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»da bosilib chiqqan. Keyinchalik, «Gulxan», «G'uncha» jurnallarida chop etilgan. Shoirlardan Zafar Diyor, Sulton Jo'ra va Quddat Hikmatlarning asarlari mening uchun «Yo'lchi yulduz» bo'lgan. O'zbek adabiyotining allomalaridan biri Mirtemir og'aning ko'magi tufayli bolalarning betakror shoiri Quddat Hikmat bilan tanishganman. O'ta talabchan noshir, qattiqqo'l ustoz Quddat aka kaminaga beminnat yordam ko'rsatgan. Dastlabki mashqlarimga oq yo'l tilagan. Talabalik davrimdayoq kitoblarimni chiqarib bergan. O'zbekiston Milliy Universitetining oxirgi bosqichida o'qiyotganimda Yozuvchilar uyushmasiga a'zo qilib olishgan.

Izchil mehnat, erinmay o'qish, benazir ustozlarim yordami bilan 20 dan ortiq kitoblarim bosilib chiqdi. Mehnatim munosib taqdirlandi. Qirg'iz adiblarining bir talay asarlarini o'zbek tiliga o'girdim. She'rlarimdagi ravonlik, kutilmagan qofiyalar eng avvalo xalq dostonlaridan, qolaversa, ustozim Quddat Hikmatdan yuqqan bo'lsa ajab emas.

Muhtaram tiyrak bolalar! Men yuqorida adabiyot olamiga qay tarzda kirib kelganligimni qisqacha hikoya qilib berdim. Sizlar, Vatanimizning sadoqatli farzandlari, ota-onangizning diyonatli o'g'il-qizlari bo'lib voyaga yetishinglar uchun eng avvalo sidqidildan bilim olishlaringiz kerak. O'qigan baribir o'zadi. Sizlarga sog'liq va omad tilayman.

Tursunboy ADASHBOYEV.

To'qtash ABIKEYEV,  
Qirg'iz yozuvchisi.

### CHUMOLI BILAN YOTALOQ

(Ertak)

Qadim zamonda, Jalolobod tomonda Yotaloq degan bir dangasa bola bo'lgan ekan. Otasi ishga buyursa ham, onasi ishga buyursa ham uning javobi tayyor ekan:

- Xudoning kunlari qumdan ham ko'p, ozgina salqin-soyada dam olayin, ish degani qochib ketmasa kerak, - deb asosiy vaqtini uxlab o'tkazarkan.

Shunday kunlarning birida tol ostida yonboshlab, nima qilishini bilmay yotganida atrofidan zir chopib o'tayotgan chumolilarga ko'zi tushibdi. Ulardan birini o'rtancha barmog'iga qo'ndirib, gapga solibdi:

- Hoy, chumoli, nega boshing haddan tashqari katta?

- Boshimda aql-idrok, rejalar ko'p, shuning uchun.

- Unda nima uchun beling o'ta ingichka?

- Barcha quvvat va kuchim shu nozik belimda, - debdi u barmog' uchida aylanib.

- Qiziq, unda oyoqlaring nima sababdan yalpayib ketgan?

- Quyosh bilan musobaqa qilib tinmay mehnat qilganim uchun-da.

Chumolining bu javobidan uncha qoniqmagan Yotaloq uni yana so'zga tutibdi:

- Tong otgandan to quyosh botgunga qadar tinib-tinchimagan hasharot, atrofingda nima ko'p, ko'katlar, soya-salqin joylar. Yaproqlarning ostida mazza qilib dam olmaysanmi?

- Quyosh hordiq olmaganicha men ham dam olmayman, - deb javob qaytardi chumoli barmog'ning uchida gir aylanib.

- Menga sersoya joy bo'lsa, rohat qilib hordiq olgan bo'lardim.

- Yotish degani hordiq chiqarish emas, - debdi chumoli, - bu umrni behuda o'tgani.

- Aslida sen nimani izlaysan?

- Izlaganim, hayotning mag'zi va sirlari, - deya u yalqov barmog'idan sakrab tushib, o'z to'piga qo'shilib ketibdi.

Yotaloq lol qolib, xayolga cho'mibdi: «Chumolilar aql bilan idrokni qayerdan olarkin? Quyosh bilan musobaqa qilib hayotni, turmushning sir-asrorlarini qanday qilib o'rganarkin?», deya uni izlab yo'lga tushibdi. Qidira-qidira terga botibdi. Tanish chumoli hech qayerda ko'rinmabdi. O'zicha ko'p ish qilgan kishi bo'lib, holdan toyib turgan mahalda u ro'parasidan chiqibdi.

- Uf, chumolivoy, seni qidirib rosa charchadim. Menga aytib ber, aql-idrokni, kuch-quvvatni qayerdan olasan? Quyosh bilan teng turib hayotning sirlarini qayoqdan izlaysan?

- Bularni seni yoningda o'tirib olib tushuntirishim qiyin. Eng yaxshisi men bilan yur. Chumoli Yotaloqqa bir boshdan maysa bilan ko'katlarning xosiyatini aytib beradi:

- Biz mana buni «Darmon dori» deymiz. Bu ko'kat erta bahorda, Navro'z kelishi bilan chiqadi. O'n besh kunda yetiladi. Dastlab undan yeb kuch-quvvat olamiz.

«Totli maysa» deyishadi. Uning turgan-bitgani dori, qirg'iz kasallikka bo'ladi. Qiyoq o'tning oldida turgan ko'katni «Mehrigiyoh» deydilar.

«Oziq» deb atashadi. Endi senga eng muhim yaproqlardan biri ko'rsataman. Uni sizlar otquloq deysizlar. Biz «So'rg'oq» deyishimizning yomg'irning suvini simirib-so'rib oladi va kerak paytda undan foydalanadi.

uchun biz quyosh qizdirgan kezda uning tomirlaridan suv ichamiz. mana bahonada tanishib oldik, ana quyosh ham botayapti. Endi hordiq tongda oftobni qarshilab olgach, ishga tushamiz.

qilib, Yotaloq chumoli bilan do'stlashib olgach, u suhbatlashib, boshqa g'iyohlarning ham fazilatini

bilib oldi. Qurt-qumursqalarning foyda va ziyonlarini o'rganadi.

Qaysi paytda yomg'ir yog'ish sirlarini anglab yetadigan bo'ldi.

Oradan ma'lum vaqt o'tib, Yotaloqning belida kuch-quvvat, boshida aql-idrok paydo bo'lib, Yotaloq-Yalqov degan ismi o'zgarib, u Bog'bon-Tabib nomi bilan mashhur bo'lib ketibdi.

Tursunboy ADASHBOYEV tarjimas.





- Ra'no, adashmasam ilk bora «Bo'sh o'tirma» da chiqqandingiz-a?

- Onam bilan yetaklashib «Yangi avlod» studiyasiga borgan kunim kechagidek esimda. Operator Xusan aka To'xtayev biror she'rni ifodali o'qib berishimni so'radilar. Yoddan o'qib bergan «Ona» she'rim «Bo'sh o'tirma»ning muallifi Dilbar opa Usmonovaga ham ma'qul bo'ldi chog'i, ko'rsatuvga taklif qilishdi. O'shanda xursand bo'lib ketganimni bir ko'rsangiz edi. Shu-shu boshlovchilik qilib yurdim. Keyinchalik «Oq kabutar»ga chaqirishdi.

- Ko'rsatuv jarayonida ko'proq qaysi jurnalistlarga o'xshashga harakat qilasiz?

- Ko'pgina jurnalistlarga, ayniqsa, «Davr» axborot dasturining jurnalistlaridan biri Nodira opa Tursunovaga



## O'ZIMGA O'XSHASAM DEYMAN...

*Aziz tengdoshlarim, biz bolajonlar uchun mo'ljallangan «Yangi avlod» studiyasi ko'rsatuvlarini siz ham maroq bilan tomosha qilsangiz kerak-a? Chunki mazmunan rang-barang bo'lgan bu ko'rsatuvlar boshlovchilarining mahoratlari tufayli yanada qiziqarliroq bo'lyapti. Chehralari bizga tanish bo'lib qolgan boshlovchilar bilan yaqindan tanishishni kim ham istamaydi deysiz? Ana shunday ko'rsatuvlardan biri «Oq kabutar»ning boshlovchisi Ra'no Bo'riyeva mening maktabdoshim bo'ladi. Uni sizlar bilan ham yaqindan tanishtirishga ahd qilib, suhbatga tortdim:*

juda havas qilaman. Lekin hech birining harakatlarini takrorlashni, ularga taqlid qilishni istamayman. Aksincha, boshqalardan ajralib tursam, faqat o'zimga o'xshasam, deyman...

- Do'stlaringiz ko'p bo'lsa kerak-a?

- Do'stlarim serob. Ulardan eng yaqinini siz ham taniysiz: «Katta tanaffus» ko'rsatuv boshlovchilaridan biri Dilnoza Nishonboyevadir.

- «Olis osmon» videofilmida Feruza rolini ijro etgan Nilufar Zaripova bilan opa-singil emasmisizlar?

- Yo'g'-e... O'zimga ham shu savolni bir necha marta berishdi. Biz Nilufar opa bilan hatto qarindosh ham emasmiz. Avvalroq ham xuddi shunday voqea

avlod» da chiqishimdan sal avvalroq ko'rsatuvni tark etgan ekan. Meni ko'rib, biroz dam olib, yana qaytibdi-da,

deyishibdi. Eh-he, meni ko'pchilikka o'xshatishadi.

- Orzularingiz bilan ham o'rtoqlashsangiz.

- Orzularim bisyor. Ulardan eng asosiysi - qo'li yengil shifokor bo'lish.

- Kitob o'qishni yoqtirasizmi?

- To'g'risini aytsam, unchalik emas. Lekin «Tong yulduzi»ni sevib o'qiyman. Gazetaning tili menga juda yoqadi. Uning muxlislari yanada ko'payaversin.

- Tengdoshlaringizga tilaklaringiz.

- Ota-onalari baxtiga sog'-omon bo'lishsin. Ular orzulagandek farzandlar bo'lib kamol topsinlar.

- Samimiy tilaklaringiz uchun rahmat.

Suhbatdosh:

Dilafrō'z XUDOYBERDIYEVA,

Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi

112 - maktabning 10 - sinf o'quvchisi.

### Hunardan unar

Andijon viloyati, Bo'z tumani «Yangi qishloq»dagi mahallalardan birida zardo'zlik to'garagi ish olib borar ekan. U yerga borib, ko'rgazma uchun tayyorlangan devoriy namunalar bilan tanishib chiqdim: zardo'ppi, joynamoz, nimcha, chopon, pistonli ro'mol, yelpig'ich, choynak uchun taglik va shaklli do'ppi...

## ZARDO'Z YIGIT

Opalarim bichish-tikishni, to'qishni, qandolatchilikni

To'garak rahbari, men kutganimdek ayol emas, aksincha, yigit kishi ekan. O'zini O'rinboy QURBONOV deb tanishtiryaptiyu xayolimda ming savol charx uryapti. «Ajab, chekka qishloqda o'ziga ish topgan, yana ko'plab shogirdlar o'rttirishga ulgurgan bu yigitning o'zi zardo'zlikni qachon o'rgana qoldiykin? Yana boshqa qanaqa hunarlar qo'ldan kelarkin? Qishloq yigitiga tomorqaga qarash, mol-qo'yni boqish, imoratlar solishdan vaqtini o'rttirib, yana foydali ish bilan mashg'ul bo'lish nimaga kerak bo'lib qoldiykin?»

-Nimalarni o'ylayotganingizni sezib turibman. Bilasizmi, mening ota-onam biz farzandlar tarbiyasiga juda katta e'tibor bilan qarashgan. Dadam Rasuljon Qurbonov ko'pyillik tajribaga ega, qishloqdoshlariga nafi tekkan, hozirda qarilik gashtini surayotgan shifokor. Buvim (joylari jannatda bo'lsin) Mo'tabarxon Qurbonova qahramon ona. Ular ham jamoa xo'jaligi rivojiga katta hissa qo'shganlar. Biz farzandlar 10 nafarmiz. Barchamizning o'z vazifamiz bo'lgan. Biror daqiqa ham vaqtimiz bekor o'tmagan. Maktabdan so'ng tomorqa ishlari bilan

mashg'ul bo'lganmiz. Uyimizda doimo qo'sha-qo'sha mol-sigirlar, o'nlab qo'y-qo'zilar, ko'plab parrandalar bo'lgan. Jonivorlarni parvarishlashning o'zi katta ish. Birimiz Toshkentdagi oliygohda, birimiz bilim yurtlarida o'qiganmiz. Bilimdan tashqari hunar egallashga intilganmiz.

bilan mashg'ul xonadonga borardik. O'shanda zar iplar yordamida tikilgan baxmal matolar ko'zni qamashtirar darajada jilolanardi. Uning sir-asrorlari men uchun mavhum edi. Ana shu mavhumlikni kashf etishga bel bog'ladim. Bir yil mobaynida ko'plab ishlarni tikdim. Uyga qaytgach, Bo'z tumani bolalar va o'smirlar ijodiy

uyi qoshida kosibchilik bilan birga zardo'zlik to'garagini ochdim. Bolalar va o'smirlar ijodiy uyiga 43 yillik pedagogik ish tajribasiga ega Oliy toifali o'qituvchi Kiborjon Ahmedov 21 yildan buyon rahbarlik qilib keladi. Maskanimiz Andijon viloyati, Xalq Ta'limi boshqarmasiga qarashli maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o'rtasidagi reyting natijasiga ko'ra 4-o'rinda turadi.

Zardo'zligimizga kelsak, yaqinda tuman miqyosidagi ko'rikda birinchi o'ringa sazovor bo'ldik. O'quvchim Mohlaroyim Rasuljonova o'z namunalari uchun «Faxriy yorliq» va qimmatbaho sovg'aga sazovor bo'ldi...

Chindan ham izlagan imkon topadi.

Hayotda ba'zilar «ish yo'q, maosh kam, tirikchilikni amallayapmiz», deb noliydi. Tog'ni talqon qilishga qurbi yetadigan kuchini sarflamay, bekor yuradi. Shundaylarga, atrofingizga boqing, o'zingizni sinab ko'ring, degim keladi. «Qimirlagan qir oshar», deb bekorga aytishmaydi.

Muharrama PIRMATOVA.



o'rganishsa, biz o'g'il bolalar kosibchilik va duradgorlikni o'zlashtirganmiz. Tomorqa atrofida teraklar ko'paytirib, ulardan turli buyumlar yasaganmiz, uylarimizni o'z qo'limiz bilan qurganmiz.

Zardo'zlikka kelsak, uning tarixi qiziq. Men harbiy xizmatni Surxondaryo viloyati, Termiz shahrida o'taganman. Xizmat mobaynida bo'sh vaqtimizda hunar





*Har bir inson ezgulik sari intiladi. Ezgu ishlarni amalga oshirish, o'zidan yaxshi nom qoldirish chinakam insoniy fazilatdir.*

*Shunday insonlardan biri yosh avlodga puxta bilim berib, el nazariga tushgan Ra'no opa Xolmatova uzoq*

*yillardan beri so'lim Farg'ona viloyatining Quvasoy shahar Xalq Ta'limi bo'limini boshqarib kelmoqda.*

xonalarini yetarlicha ta'mirlash- bularning barchasi doimiy nazoratimizda.

Sportni rivojlantirish bilan bir qatorda farzandlarni hunar

## SAODATGA YO'L

o'rganishga, tadbirkorlikka ham tayyorlab borishni lozim, deb o'ylagan mudira barkamol avlod - avvalo sog'lom, so'ngra zukko, hunarli, zamon bilan hamnafas bo'lishi kerakligini yaxshi biladi. Shu maqsadda maktab to'garaklariga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, XXI asr yutug'i hisoblangan kompyuter texnikasini o'quvchilar mukammal egallashlari uchun harakatda u.

Ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgan kunlarda yangi ishlab chiqilgan ta'lim standarti bu boradagi qator qonun va qarorlarga befarq emas.

- Respublikamiz shahar va tumanlarida yangi-yangi zamonaviy akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning qad rostlayotgani o'z kasbimizga mehr qo'yishga undaydi. Demak, bugungi kun o'qituvchisi ham, o'quvchisi ham ta'lim berish va o'zlashtirish usullarida avvalgilaridan farq qiladi, - deydi ustoz. - Zamon har bir fan uchun yangi-yangi dasturlar ishlab chiqishni, har bir mavzuni o'ziga xos o'quv texnologiyalari asosida o'quvchiga yetkazishni taqozo etmoqda. Shuningdek, o'quvchilarni izlanishga, o'z ustida ishlashga, fikr kiritishga yo'naltirish ham nazarda tutildi. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'qituvchi o'quvchining og'ziga chaynab solmaydi, aksincha, unga yo'l-yo'riq beradi, o'z ustida ishlashga

o'rgatadi. Yana bir dolzarb muammoga to'xtalib o'tmoqchiman: ko'pincha Xalq Ta'limi bo'limlari maktablarni yetarli mablag' bilan ta'minlay

olmayapti. Zarur mablag'ni har bir maktab o'z ichki imkoniyatidan izlab topishga to'g'ri kelmoqda.

Jumladan, ta'lim maskanlari o'ziga qarashli yerlardan unumli foydalanishi shart. Ushbu yerlarga qishloq xo'jalik mahsulotlari, poliz va sabzovot ekinlarini ekib, shartnoma asosida sotishni yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi. Maktablarda bichish-tikish to'garaklarini jonlantirib, bolalar bog'chalari uchun kerakli bo'lgan yumshoq jihozlarni tikishni yo'lga qo'yish lozim. Ana shular hisobiga kelgan mablag'larni har bir ta'lim maskani o'z ehtiyojiga ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ha, albatta Ra'no opa ta'kidlaganidek «olma pish, og'zinga tush» qabilida ish tutadigan zamonlar o'tdi. Endi kim ko'proq izlanib, ko'proq imkoniyat qidirsas, ertangi kunini farovon ko'radi.

Ertangi kun ilinjida, farovon, xotirjam hayot va mehnat orzusida yosh avlodni o'z farzandlaridek tarbiyalayotgan, buning uchun yelib-yugurib, ona kabi ming bir ummonlarga urilib, g'olib chiqayotgan ustozga sog'lik, saodat tilaymiz. Nainki, o'z oilasi, balki o'z vazifasi, sevimli kasbiga sadoqatlilar saodatlidir!

Salimjon IN'OMZODA.

Ustoz haqida so'z

## KO'ZLARGA ZIYO SOCHUR SABOQLARINGIZ!

*Quyosh zarrin nurlarini sochib, borliq qaldirg'ochlarning vijir-vijiriga to'lgan. Mayin esayotgan Qoratog' shamoli dillarga huzur baxsh etadi. Islom shoir kabi el baxshilari yetishib chiqqan so'lim Narpay tumanida Respublika Xalq Ta'limi a'lochisi Nazira opa Primova ham yashab, mehnat*

Nazira opa dastlab maktabda yetakchi, so'ngra o'qituvchi, direktor o'rinbosari, 1992 - yildan buyon esa Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi Alisher Navoiy nomli 64- umumiy o'rta ta'lim maktabining rahbari vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda. Maktab hovlisi turli-tuman mevali daraxtlar, rang-barang gullar bilan bezangan, tevarak-atrof toza, ozoda.

50 dan ziyod o'qituvchi, 740 nafar o'quvchini bag'riga olgan bu ilm dargohi ta'lim borasida erishayotgan bir qator ibratli yutuqlari bilan e'tiborga loyiqdir.

- Maktabimizda ijodiy muhit hukmron, - deydi direktor. - O'quvchilarimizga 2-sinf dan boshlab ingliz tili va kompyuter saboqlaridan dars o'tamiz. Intiluvchan o'qituvchilarimizdan To'lqin Karimov, Gavhar Usmonova, Gulbuvi Xolboyeva Respublika TEST Markazi tanlovi g'oliblari bo'lishgan bo'lsa, Mavjuda Hayitova, Zebo O'rinova, Muhabbat Narzullayeva, Emma Xamitova, O'g'iloy Aliqulova, Lola Zoirova kabi ustozlarimiz berayotgan saboqlardan o'quvchilarimiz mamnun bo'lishmoqda.

- O'quvchilar o'rtasida sport sog'lomlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar, maktabda faoliyat ko'rsatayotgan to'garaklar to'g'risida to'xtalib o'tsangiz.

- Maktabimiz o'quvchilari futbol, voleybol, karate kabi

to'garaklarga muntazam qatnaydi. Yaqinda sportchilarimiz «Umid nihollari» musobaqalarida qatnashib, viloyat bosqichiga yo'llanma olgan bo'lsa, maktabimiz o'quvchisi Nilufar Samadova karate musobaqasi bo'yicha qizlar o'rtasida

Respublika chempionatida birinchi o'rinni egalladi. Bundan tashqari, bolajonlarimiz tomonidan tashkil qilingan maktab



qo'g'irchoq teatri, «Umid dastasi» ansambli san'at sohasidagi erishayotgan yutuqlarimiz timsolidir. Sarvinoz Xasanova Respublikamizda o'tkazilgan qo'shiqlar tanlovida yakka ijro bo'yicha 3- o'rinni egalladi. 6-sinf o'quvchisi Maftuna Haydarova qo'shiqlar tanlovining viloyat bosqichida g'olib bo'lib, Respublikaga borish huquqini qo'lga kiritdi. Qo'g'irchoq teatri tomoshalari, o'quvchilarning konsert nomerlari, o'qituvchilarimizning qo'shimcha darslaridan bir yilda o'rta hisobda 200- 250

ming so'm daromad qilamiz. Bu pullarni maktabni jihozlash, a'lochi o'quvchilarimizni rag'batlantirish, qo'g'irchoq teatri uchun kiyimlar olishga sarflaymiz.

-Ba'zan ko'cha-ko'yda bekorchi bolalarni ko'p uchrataman. Siz nima deb o'ylaysiz, bolalar darslarga qiziqishmaydimi?

-O'rinli savol berdingiz, hozirgi bolalarda erkin fikrlash qobiliyati juda kuchli. O'qituvchilarimiz birgina kundalik dars bilan chegaralanib qolmasdan, ana shu erkin fikrlash jarayonini ham dars bilan birgalikda olib borishlari lozim. Shunda bolajonlarimiz darslardan zerikib qolmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, bir narsani ta'kidlab o'tmoqchiman. Maktablarimizda erkak o'qituvchilarning soni kamayib bormoqda. Bu achinarli holdir. Chunki erkak o'qituvchilarning o'g'il bolalar bilan muloqot doirasi kengroq bo'ladi, ular hamisha o'z ustozlaridan ibrat olishga intiladi. Darsga kelmaslikning yana bir sababi - goho ba'zi ota-onalar farzandlari tarbiyasiga loqayd qarashadi. Afsuski, ana shu loqaydlik bolaning kelajagini bir umrga zaif qilib qo'yishi mumkin.

Ustozning o'z oilasi haqida ham qiziqdim.

-Turmush o'rtog'im Oliy ma'lumotli muhandis, ikki nafar farzandimiz bor, - dedi ustoz. - Ulug'bekjon Samarqand Davlat Universitetini tugatgan, Nargizaxon esa shu oliygohning 1-kursida tahsil olmoqda. Ikki nafar nabiramız bizning quvonchimizdir.

Quvonchingiz so'nmasin, Nazira opa! Maktabga qattiqqo'l ota, mehribon aka, vafodor do'st erkak ustozlarni chorlayotgan ekansiz, chorlovingiz izziz qolmaydi, deb o'ylaymiz. Bu borada boshqa maktab rahbarlari ham o'ylab ko'rishi shart.

Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.





## 7 - BO'LIM

IBN SHIFONING SOG'LIQ  
HAQIDAGI O'GITLARIBilgil, tan sog'liq  
O'zingga bog'liq.Har kun erta tur,  
Yuvin va yugur.Sog'ning yo'ldoshi -  
Aql-u bardoshi.Sog'lomda insof  
Misoli oftob.Yurakdir buyuk,  
Yuradir «duk-duk».Sog'liq uchun suv  
Oltindan zo'r u.

## Tabobat hikmatlarin

Joylab baytlar aro,

Beray maslahat - o'git,

Bo'lgay deb yaxshi davo.

## Po'lat MO'MIN


Ortiqcha shovqin  
Buzadi zavqing.Noo'rin g'azab  
Asabga azob.

## IBN SHIFO ULASHAR DAVO

(o'gitlar)

Pok va sog' doim  
Kular muloyim.Qalbing bo'lsa sog',  
Qadding bo'lar tog'.Sog'liq ulug' baxt,  
Asqotar har vaqt.Sog'liqni teja,  
Kunduz va kecha.Qayda yashillik -  
Sog'lik, yaxshilik.Sog'liqqa shukur -  
Qilmoqlik huzur.Sog'ning ko'ngli to'q,  
Mardning qalbi cho'g'.Buzulsa asab,  
Bor-da bir sabab.Chin ko'ngildan kul,  
Sog'lomliging shul.Sog'lom bo'ldirar.  
Bemor mo'ltirar.Kimki salomat,  
Bordir halovat.Ulashsa oltin,  
Sen sog'liq olgin.Salomat chog'ing  
Ko'pdir o'rtog'ing.Ishonib ich suv,  
Davo bo'lar u.Deyishar nasl,  
Bo'lsin pok, asl.Tilamoq sog'liq  
Asl o'rtoqlik.Tanning sog'lig'i -  
Vaqtning chog'lig'i.Sog'lomda odat:  
Tik qaddu qomat.Kasallik oldin  
Sog'liqda olgin.Turlidir mijoz,  
Bilib yurgan soz.Ortiqcha uyqu  
Sog'liqqa yov u.Eng vaqti chog'liq  
Sog'liq va sog'liq.Oz va soz yegil,  
Yurasan yengil.Sog'lom yurak, deng  
Fazodan ham keng.G'ayrat bilan kuch  
Sog'da kellar duch.Mard bilan oshno  
Bo'lish ham shifo.Dard bo'lsa to'siq,  
Ochadi qo'shiq.Sog'liq ila baxt  
Sotilmas hech vaqt.Bolam soppa-sog',  
Olam soppa-sog'.Meva bo'lsa sog',  
Tutib turar shox.Ruhing tetik tut,  
Misoli burgut.Sog'liqning to'yi -  
Kulgi va o'yin.Ko'nglingni keng tut,  
Sog'lomga teng tut.Sog'lomlik gulday,  
Doimo kulgay.Mayin ohang ham,  
Sehrlil malham.Sog'liq qo'lingda,  
To'g'ri yo'lingda.Tishlar ham askar  
Sog'liqni saqlar.Odamda hovur -  
Odam-la sovur.Diltozaligi  
Nasldan tegi.Yashash g'animat,  
Havo ham ne'mat.G'oz tut qaddingni,  
Unuthadikni.Tilni o'rtar sho'r,  
Dilni o'rtar g'o'r.Bir nafas huzur  
Malhamday zarur.Mard sog'liq uchun  
Sharflar bor kuchin.Chiqsang oftobga,  
Keltirar tobga.Har qanday kasal  
Kutmaydi paysal.Xotirjam asab,  
Sog'liqqa sabab.Kim sevar sport,  
Tani bo'lmas mo'rt.Nojo'ya oyoq  
Qiladir sayoq.Kunduz chiniqqan,  
Tunda tiniqqan.

(Davomi bor).

«QUVNOQ STARTLAR» Sevara MIRZAEVA, Toshkent  
shahar, Yunusobod tumanidagi Fuzuliy nomli maktabning  
5- «B» sinf o'quvchisi.

## ENG, ENG, ENG...

Eng baland bo'yli kishining ismi Gabriyel Mondlane bo'lib, uning bo'yi 2 metru 72,5 santimetrdir. Bo'yi balandlikda jirafani ham yarim yo'lda qoldirib ketuvchi bu kishi 45 yoshida Maputu shahrida vafot etgan.

Eng vazndorkishi Yon Brover Minnok deb tan olingan. Bolaligidan semirib ketish kasaliga muhtalo bo'lgan Minnokning bo'yi 185 santimetr bo'lgan holda og'irligi 635 kilogrammni tashkil etadi. Baqaloq Yonni bir tomondan ikkinchi tomonga ag'darish uchun 13 kishining yordami kerak bo'lgan.

Eng ko'p farzandli odam Malay Ismoilning 888 nafar farzandi bo'lib, ulardan 548 nafari o'g'il, 340 nafari esa qiz bola bo'lgan.

Eng ko'p umr ko'rgan kishi deb tan olingan Malik Arraniy 154 yil umr guzaronlik qilgan.

Eng badavlat odam Muda Xassanal Balkiax Muizaddin Vaddaulaxning sarmoyasi 60 milliard dollardan oshiq. Uning hozirgi saroyi 1876 ta xonalardan iborat, shaxsiy «Boing - 727» samolyoti va 250 dan ortiq avtomobili bor.

Ana shunaqa gaplar!

Gulshan SHOQOSIMOVA tayyorladi,  
TDTD qoshidagi akademik litsey o'quvchisi.

## «MIKKI MAUS» KROSSVORDI

So'z oxiridagi harf navbatdagi so'zning  
boshiga to'g'ri keladi.



chegaradosh? Biri Xitoy, ikkinchisi-chi?

2- Qulog'i bo'ylab, ko'rsatgich bo'yicha:

1. Spitamenning qizi.

2. Ibn Sino tug'ilgan qishloq.

3. Ma'nodosh so'zlar.

4. Og'irlik o'lchovi 4,95 mgr. ga teng.

5. Qadimgi o'lchov birligi 100 mingga teng.

Kiyimlari bo'ylab, ko'rsatgich bo'yicha:

1. Dunyo bo'ylab eng avval kim sayyoh bo'lgan? (Tinch okeaniga nom bergan).

2. Nigeriya pul birligi.

3. Tok kuchini o'lchaydigan asbob.

4. Davlat boshqaruv shakli.

5. Yangi yil qutlov qog'ozlari paydo bo'lgan shahar.

6. Hajviy rasm.

7. Zardushtiyalarda yovuzlik xudosi.

Oyoq kiyimlari bo'ylab, ko'rsatgich bo'yicha:

1. Dada, ota (shevada).

2. Gullamay meva tugar.

3. Navoiy viloyatidagi tarixiy yodgorliklardan biri.

Ma'nosi forschadan olingan, «qozon ustasi».

4. Eng uzun daryo.

5. Tosh qobig'i.

6. Mangu bahor shahri: Addis- ...

7. Iskandar Zulqarnaynning ustози.

8. Tog' guli.

9. Birinchi yozuv paydo bo'lgan shahar.

10. Samolyot ixtirochisi.

11. 3°: 3° = 3°

12. Suv sathi o'lchov birligi? Hozirgi 15-20 mgr. ga teng.

13. ... ixtirosi.

8. Yog' (ruschada).

1- Qulog'i bo'ylab, ko'rsatgich bo'yicha:

1. 1875 yilda qaysi shaharda m. km. kg. qabul qilingan?

2. Dunyodagi eng bo'yni uzun jonivor.

3. Eng katta yarim orol.

4. Everest cho'qqisi qaysi davlatlar bilan

Gulnoza SHODMONOVA,

Navoiy viloyati, Navoiy tumanidagi

3 - o'rta maktabning 7- «V» sinf o'quvchisi.





21 aprel

TONG YULDUZI

2003

## Bizning to'garak



## QADRDONIM YOSHLIK

Shirin damlar o'tadi shoshib,  
Oy-u yillar ortga qaytmaydi.  
Bolaligim o'tgan qir oshib,  
Endi qizlar sirlar aytmaydi.

Xayrlashib do'stlar-la sekin,  
Maktab qoldi, ko'zda yosh qoldi.  
O'zga manzil yo'llari sokin,  
Tizginlarin qo'liga oldi.

Gulnoza BOZORBOYEVA,

Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 20-o'rta  
maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.

## QISHLOG'IMGGA YUR

Yurgin do'stim, qishlog'imga yur,  
Istasang, tog'larda qo'shiq aytamiz.  
Quchoq-quchoq guldasta terib,  
Qishlog'imga yana qaytamiz.

Saman otlar kishnar qirlarda,  
Qushlar ovozidan zavqlanar diling.  
Quyosh ham nurlarin sochar beminnat,  
Ta'rifi o'z qoladi tiling.

Shaharlardek sershovqin emas,  
Qushlar sayrar, oqar zilol suv.  
Oy shu'las aks etgan suvdan,  
Qonib ichgin, yuzlaringni yuv.

Mehmon bo'lib istaganingcha,  
So'ngra yana shaharga qaytgin.  
Qishloqning ham ajib ekanin,  
Shahardagi do'stingga aytgin.

Zuhra XASANOVA,

Jizzax viloyati, Forish tumanidagi Muqimiy nomli  
15 - o'rta maktabning 8 - «B» sinf o'quvchisi.



Ona yuring - oltin beshing  
**TONG**  
**Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

**Muassislar:**  
**O'ZBEKISTON**  
**MATBUOT VA**  
**AXBOROT**  
**AGENTLIGI,**  
**O'ZBEKISTON**  
**RESPUBLIKASI**  
**XALQ TA'LIMI**  
**VAZIRLIGI,**  
**«KAMOLOT»**  
**YOSHLAR IJTIMOIIY**  
**HARAKATI,**  
**«SOG'LOM AVLOD**  
**UCHUN» XAYRIYA**  
**JAMG'ARMASI**


**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama  
MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

**Gazeta «Ijod dunyosi»**  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.  
**Hajmi A-3, 2 bosma**  
**taboq.**  
«Sharq» nashriyot -  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida ofset  
usulida bosildi.  
**Adadi - 36380.**  
**Korxona manzili:**  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.  
**Buyurtma № 1 - 318**  
**Gazetani**  
**Muharrama**  
**PIRMATOVA**  
sahifaladi.  
**Navbatchi:**  
**Jamila**  
**ERDONOVA**

**Ro'yxatdan o'tish**  
tartibi № 000137  
**Manzilibiz: 700129,**  
**Toshkent shahri,**  
**Navoiy ko'chasi,**  
**30-uy.**

Tel: 144-63-08  
144-63-75



«MAHALLAMDA BAYRAM» deb nomlangan mana bu rasmni Toshkent  
viloyati, Qibray tumanidagi 29 - maktabning 7 - «V» sinf o'quvchisi  
Jamshid HAKIMOV chizibdi.



## DAKANXO'ROZ

Dakan xo'roz qo'-qo'lab,  
Nasibasin teradi.  
Goh go'nglarni titkilab,  
Tovuqlarga beradi.  
Bino qo'yib o'ziga,  
Ovozi ko'kka yetar.  
Zo'rdan ham zo'r boriga,  
Qaydan ham aqli yetar?  
Ko'cha kezib kekkayib,  
Qo'shni hovliga boqdi.  
O'ziga teng raqibi,  
Rosa po'stagin qoqdi.  
Shu kun dakan qavakdan,  
Chiqmay yotdi, kech kirdi.  
Ertasiga inidan,  
Chiqmay turib qichqirdi.



Dadaboy ARAZOV,  
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir  
tumanidagi 26 - maktab o'quvchisi.

## SOG'INCH

Munis onam har kun sizni o'ylaydi,  
Omon qayting, deya qiladi o'tinch.  
Tunda to'lin oyim ertak so'zlaydi,  
Akajon, qalbmida yashaydi sog'inch.  
Buyuk davlatimga sharafsiz-shonsiz,  
Vatanning ishonchin oqlang mardona.  
Xalqimga tayanchsiz, yurtga qalqonsiz,  
Onamning duosi sizga parvona.  
Vatan tinchligi-chun jon fido aylab,  
Yurtboshim so'zlarin siz yodda tuting.  
Yurtim sarhadlarin asrab-avaylab,  
Muqaddas tuprog'in ko'zlarga surting.

Munira PARDAYEVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 4 - umum-  
o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi.

## KITOBIM



Mening do'stimdir kitob,  
Bilim beradi har choq.  
Qo'limga olganim tob -  
Unut bo'ladi charchoq.  
Ustozim aytgandayin,  
Bilim - aqlchirog'i.  
Bilganlarim boyitar,  
Kitobimning varag'i.  
Ardoqlayman uni men,  
Ko'zimning qorasiday.  
Hikmat yashar qatma-qat,  
Kitobim orasida.  
Aslida-ku kitobdan  
Zarar topgan kishi yo'q.  
Lek ba'zi bolalarning,  
O'qimoqqa hushi yo'q.  
Ulardan o'rnak olib,  
Men ham labim burmadim.  
Aksincha, kitobimga,  
Oshib borar hurmatim!

Shohista QAZAQOVA,  
Farg'ona viloyati, Marg'ilon  
shahridagi 19 - maktabning  
7- «B» sinf o'quvchisi.

## ENG OG'IR SINOV

Qadimda Eron shohi Rum va Hindiston mamlakatlaridan kelgan  
faylasuflarni jamlab, majlis o'tkazibdi. Ularga «Inson uchun eng og'ir  
sinov nima?» deb savol beribdi. Rumlik  
donishmand: «Qarib, yordamsiz qolish,  
tangdastlik», dedi. Hindistonlik hakam: «Kasallik  
va juda qayg'u-alamli turmush», debdi. Eronlik  
donishmand Buzurgmehr esa «Dunyoda yaxshi  
va hammaga maqbul-marg'ub ish qilmay turib  
yetgan ajal», deb javob beribdi. Uning fikri majlis  
ahliga ma'qul bo'libdi.

Qissadan hissa shuki, har bir inson hayoti davomida ezgu  
ishlar qilishga ulgurishi lozim.

Dilorom O'ROZBOYEVA,  
Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi  
9 - o'rta maktabning 11 - sinf o'quvchisi.



xxx

-Dada, o'qituvchimiz sizni chaqiryaptilar. Ertaga  
uchrashib kelarkansiz, dedi o'g'il otaga.  
-Yana nima ish qilib qo'yding? -so'radi ota.  
-Hech narsa qilganim yo'q. Hamma ishladi, men  
qarab turdim...

Guljamol ISOQOVA,

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi  
63 - maktabning 4 - «V» sinf o'quvchisi.

